



UNIVERSAL VALUES IN ISLAMIC PHILOSOPHY AND EUROPEAN HUMANISM

Aziza Sultonova

Associate Professor

Tashkent State University of Economics

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: humanism, universal human values, philosophy, dignity, human rights, Sharia and Sunnah, ethics, spirituality.

Received: 19.05.25

Accepted: 21.05.25

Published: 23.05.25

Abstract: Islamic philosophy and European humanism, although seemingly opposing ideologies at first glance, both promote universal human values such as human dignity, reason, justice, and spirituality. This article explores how these two philosophical schools interpret the concept of human beings and their value.

ISLOM FALSAFASI VA EVROPA GUMANIZMIDAGI UMUMINSONIY QADRIYATLAR

Aziza Sultonova

dotsent

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Toshkent, O'zbekiston

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so'zlar: gumanizm, umuminsoniy qadriyatlar, falsafa, qadr-qimmat, inson huquqlari, shariat va sunna, axloq, ma'naviyat.

Annotatsiya: Islom falsafasi va Evropa gumanizmi — bir qarashda qarama-qarshi mafkuralardek tuyulsa-da, har ikkisi inson qadri, aql, adolat va ma'naviyat kabi umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etadi. Bu maqolada ushbu ikki falsafiy maktabda inson va uning qadr-qimmati qanday talqin etilishi o'rganiladi.

УНИВЕРСАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ В ИСЛАМСКОЙ ФИЛОСОФИИ И ЕВРОПЕЙСКОМ ГУМАНИЗМЕ

Азиза Султонова

Доцент

Ташкентский государственный экономический университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гуманизм, универсальные человеческие ценности, философия, достоинство, права человека, шариат и сунна, этика, духовность.

Аннотация: Исламская философия и европейский гуманизм — хотя на первый взгляд кажутся противоположными идеологиями, обе пропагандируют универсальные человеческие ценности, такие как достоинство человека, разум, справедливость и духовность. В данной статье исследуется, как в этих двух философских школах трактуется человек и его ценность.

Umuminsoniy qadriyatlar — insoniyatning turli sivilizasiya va madaniyatlarida uchraydigan, barcha insonlar uchun umumiylig bo‘lgan axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy normalar to‘plamidir. Bu qadriyatlar inson huquqlari, adolat, erkinlik, hamdardlik, tinchlik, aql, mas’uliyat va insoniylik kabi tushunchalarda namoyon bo‘ladi.

Umuminsoniy qadriyatlar insoniy hamjihatlikni ta’minlashda, adolatli ijtimoiy tuzum yaratishda, ma’naviy kamol va shaxs taraqqiyotida, global muloqot va hamkorlikda muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning qadri va huquqlarini himoya qilishda umuminsoniy qadriyatlar axloqiy qonun sifatida xizmat qiladi. Ular har qanday siyosiy, iqtisodiy manfaatdan ustun turadi. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi (1948) aynan shu asosda yaratilgan [1].

Umuminsoniy qadriyatlarning falsafiy asosi ontologiya, axloq falsafasi, antropologiya, va huquq falsafasi kabi sohalarga bog‘liq. Bu qadriyatlar tabiat, aql va inson ma’naviyati orqali kelib chiqadi. Aristotel o‘zining Nikomax axloqi asarida insonni “axloqiy fazilat” asosida tarbiyalash kerakligini ta’kidlagan. Universal qadriyatlar — bu aql va axloqiy mezonlar uyg‘unligidir. Kantga ko‘ra, inson boshqa insonlarga hech qachon vosita sifatida emas, balki maqsad sifatida munosabatda bo‘lishi kerak. Bu yondashuv universal axloq mezonlarini yaratishga qaratilgan [2].

Falsafa tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Islomda umuminsoniy qadriyatlar Allohning hukmlariga asoslanadi, Evropa gumanizmida esa aql va tajribaga asoslanadi.

Islom falsafasida inson qadri ilohiy manbaga, ya’ni Allohning yaratuvchi sifatidagi ehtiromiga bog‘liq bo‘lib, “ashraful maqluqot” sifatida oliy maqomda turadi. Bu insonning faqat moddiy jonzot emas, balki ma’naviy va aqliy salohiyat sohibi ekanligini bildiruvchi falsafiy yondashuvdir. Farobi, Avisenna va G‘azzoliy kabi mutafakkirlar insonning aqliy rivojiga katta e’tibor berishgan. Insonning “ixtiyor” (iroda) va “tafakkur” qobiliyati Islom axloqi va falsafasida asosiy rol o‘ynaydi. Qur’onda: “Darhaqiqat, (Biz) Odam farzandlarini (aziz va) mukarram qildik va ularni quruqlik va dengizga (ot-ulov va kemalarga) mindirib qo‘ydik hamda ularga pok narsalardan rizq berdik va ularni O‘zimiz yaratgan ko‘p jonzotlardan afzal qilib qo‘ydik” deyilgan (Isro, 70-oyat).

Bunga muqobil, Evropa gumanizmda inson qadri tabiiy huquqlar va aqlga asoslanadi. Inson — aql va erkin irodasiga ega mavjudot sifatida, o‘z qadrini o‘zi belgilaydi. Gumanizm — dindan tashqarida inson aqli va huquqlarini eng yuqori qadriyat deb biladi [2]. Bu qarash Renessans davrida yuzaga kelgan va Kant, Russo, Erazm, Piko della Mirandola, Monten kabi mutafakkirlar tomonidan rivojlantirilgan.

Islom falsafasi qadriyatlarning asosiy manbaini vaxiy, ya’ni Qur'on va sunnat orqali olinadigan ilohiy hidoyat deb biladi. Bu esa qadriyatlarning mutlaq va o‘zgarmas ekanligini ta’kidlaydi.

Evropa gumanizmi esa qadriyatlarni insonning aqliy faoliyati va tajribasidan kelib chiqib shakllanadi, deb hisoblaydi. Bu yondoshuvga ko‘ra, qadriyatlarni nisbiy va jamiyatning rivoji bilan o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin.

Islom falsafasida axloq mezonı — Shariat va undan kelib chiqqan axloqiy tavsiyalardır. Ya’ni, axloq Qur'on va Payg‘ambar (s.a.v.) sunnatida belgilab berilgan. Farobiy va Ibn Sino kabi mutafakkirlar axloqni aql va shariat uyg‘unligida ko‘rsatishga harakat qilishgan.

Evropa gumanizmida axloqiy mezon sifatida universal etika va inson huquqlari tushunchasi asos qilinadi. Bu qarash Kantning “kategorik imperative” nazariyasida yaqqol ko‘zga tashlanadi: insonni hech qachon vosita sifatida emas, maqsad sifatida ko‘rish.

Islom falsafasining g‘oyaviy asosi monoteizm, ya’ni yakkaxudolikdir. Barcha qadriyatlarni va axloqiy mezonlarni Allohning irodasiga bog‘liq va ilohiy manbaga tayanadi.

Evropa gumanizmida esa g‘oyaviy asos ko‘proq sekulyarizm (dunyoviylik) va agnostisizm (din haqiqatlari noaniqligiga ishonish) bilan bog‘liq. Inson faoliyati dunyoviy tajriba asosida baholanadi, ilohiy manbalar markazda emas.

Islom falsafasi ham, Evropa gumanizmi ham inson qadrini yuksak baholaydi, lekin ularning manba va metodlari farqli. Ularning umumiyligi nuqtalari: aql, erkinlik, adolat, insoniylikni yuksak qadrlash. Bu ikki maktabni o‘zaro taqqoslab o‘rganish, bugungi global axloqiy tushunchalarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. *United Nations (1948). Universal Declaration of Human Rights// <https://www.un.org/en/universal-declaration-human-rights>*
2. Kant, I. (1785). *Groundwork of the Metaphysics of Morals*. [Cambridge University Press edition, 1997].
3. Zakerian, Mehdi. "Universalism, human rights, and Islamic relativism." *Routledge International Handbook of Contemporary Social and Political Theory*. Routledge, 2021. 571-583.
4. Daiber, Hans. "Humanism: A tradition common to both Islam and Europe. *Filozofija i drustvo*. 24.1 (2013): 293-310.

5. Sajoo, Amyn B. "The Islamic ethos and the spirit of humanism." International Journal of Politics, Culture, and Society (1995): 579-596.

6. Yousefi, Zargham, Alireza Yousefy, and Narges Keshtiaray. "Humanism factors and Islam viewpoint from Motahris point of view." Educational Research and Reviews.10.9 (2015): 1326-1334.